





JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA
BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Jizzax viloyatida o'рта maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

Jizzax viloyatida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.


JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.




Shahar va tumanlar kesimida akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshida)




JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

**Akademik litseylarda tahsil
olayotgan o'quvchilar soni**
(o'quv yili boshiga ming kishi)



**Akademik litsey o'quvchilarining shahar va tumanlar
bo'yicha taqsimlanishi**

(2021/2022 o'quv yili boshida ming kishi)



Jizzax viloyatida 2020/2021 o'quv yili boshida akademik litseylarda jami **1,8** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Qiz bolalar
31,6 %



Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning **31,6%** qizlar, **68,4%** ini o'g'il bolalar tashkil etadi.


O'g'il
bolalar
68,4 %

Akademik litsey o'quvchilarining shahar va tumanlar bo'yicha gender taqsimoti, % da (2021/2022 o'quv yili boshida)



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litsey o'qituvchilari (o'quv yili boshida, kishi)



2021- yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni 2020- yilga nisbatan **7** nafarga yoki **0,9** foizga ko'paydi va **173** nafarni tashkil etdi.

2020/2021- y.
2021/2022- y.

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



Akademik litseylar o'qituvchilarining gender taqsimoti

(2021/2022 o'quv yili boshiga)

Akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning **54,9** foizini ayollar, **45,1** foizini erkaklar tashkil etadi.


O'qituvchilarning shahar va tumanlar bo'yicha gender taqsimoti, kishi



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda*

(2021/2022 o'quv yili boshiga)



2021/2022 o'quv yili boshida Jizzax viloyatida **16** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Baxmal tumanida (**2** ta), Do'stlik tumanida) qayd etilmagan.

*shu jumladan madaniyat va san'at maktablaring qo'shgan holda



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi

(o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar bo'yicha
2021/2022 o'quv yili boshiga

Jizzax viloyatida



2021/2022 o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **6,8** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sh.Rashidov tumanida – **1,2** ming nafar, eng kami Arnasoy, Zafarobod, Paxtakor, Forish hamda Yangiobod tumanlarida – **0,3** ming nafar.

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **31,5** foizini qizlar, **68,5** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.



Qiz bolalar
31,5 %



O'g'il
bolalar
68,5 %

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining shahar va tumanlar bo'yicha gender taqsimoti,% da (2021/2022 o'quv yili boshida)



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)



2021- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2020- yilga nisbatan **151** nafarga yoki **1,9** barobarga ko'payib, **466** nafarni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Jizzax shaharda – **34** nafar, eng kami – Zafarobod hamda Yangiobod tumanlarida – **4** kishi qayd etilgan.

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollejlar soni, birlikda
(o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar bo'yicha


Jizzax viloyatida



2021/2022 o'quv yili boshida Jizzax viloyatida **9** ta kollej mavjud bo'lib, Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'pi Baxmal hamda Zomin tumanida (2 birlik), eng kami Qolgan tumanlarda (1 birlik) qayd etilgan.

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)





JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar bo'yicha

Jizzax viloyatida



2021/2022 o'quv yili boshida kollejlarda **140** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan (2020- yilda – **153** nafar) 1,1 foizga kamaygan.



■ 2020/2021 ■ 2021/2022

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikumlarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)



Jizzax viloyatida



Jizzax viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlar soni **14** tani tashkil etdi, 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **1** taga ko'paydi.



JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

Shahar va tumanlar bo'yicha

Jizzax viloyatida

Jizzax viloyati



Jizzax sh 1,9
1,3

Arnasoy 0,0
0,0

Baxmal 0,4
0,3

G`allaorol 0,8
0,6

Sh.Rashidov 1,1
0,7

Do`stlik 1,2
0,5

Zomin 1,2
1,3

Zarbdor 0,0
0,0

Mirzacho`l 0,3
0,3


Zafarabod 0,0
0,0

Paxtakor 0,5
0,4

Forish 0,0
0,0

Yangiobod 0,0
0,0

■ 2021/2022 ■ 2020/2021




2021/2022 o'quv yili boshida Jizzax viloyatidagi texnikumlarda **7,3** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (**1,9 ming**), eng past ko'rsatkich Mirzacho`l tumanida (**0,3** ming) qayd etilgan.).

JIZZAX VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

Shahar va tumanlar bo'yicha

Jizzax viloyatida



2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlarda **333** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**111** nafar) nisbatan **1,1** barobar ko'pdir. Shahar va tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Jizzax shaharda – **124** nafar, eng kami – Baxmal tumanida – **11** nafar qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejar, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejar — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.